

**Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga tayyorlashda  
klasterli yondoshuv va uning ahamiyati**

**UBAYDA YUNUSOVNA FAYZIYEVA**

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, pedagogika fanlari  
nomzodi**

**TOHIR ABDURAXMONOVICH FAYZIYEV**

**Respublika INKLYUZIV TA’LIM MARKAZI rahbari**

**Annotatsiya**

Maqolaning asosiy mazmuni Eshitishida muammolari bo‘lgan kar, zaif eshituvchi bolalarning “Ovozli dunyo”- olamni, ovozlarni eshituvchi va to‘laqonli og‘zaki muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lishda, innovatsion klasterli yondoshuvning ahamiyati va natijaviyligi haqida tajriba natijalari, tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** eshitishida muammsi bo‘lgan ( kar va zaif eshituvchi )bolalar, artikulatsiya – nutq apparatining holati, korreksion mashg‘ulot, yakka mashg‘ulot, eshitish idroki, KI-Koxlear implantatsiya, nutqiy muloqot, talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish, surdopedagogika.

**Аннотация.** Основное содержание статьи направлено на раскрытие научного опыта зарубежных учёных и практики, научного опыта нашей республики их достижений, а также изучения опыта обучения глухих, слабослышащих детей до сегодняшнего периода и перспективы обучения через инновационный кластер подготовки к инклюзивному образованию.

**Ключевые слова:** дети с нарушениями слуха, артикуляция, коррекционные занятия, индивидуальные занятия, слуховое восприятие, речевое общение, произносительные навыки, сурдопедагогика.

**Abstract.** The main content of the article is aimed at revealing the scientific experience of foreign scientists and practices, the scientific experience of our republic of their achievements, as well as studying the experience of teaching deaf and hard of hearing children up to the present period and the prospects for training and preparation for inclusive education.

**Keywords:** children with hearing impairments, articulation, correctional classes, individual lessons, auditory perception, speech communication, pronunciation skills, deaf pedagogy.

Inson eshitgani uchun gapirovi, eshitish apparati sog'lom bo'lsa eshitadi. Eshitish apparati yoki, eshitish markazida nuqson bilan tug'ilgan, yoki bolalaikning qaysidir bosqichida turli sabablar (kasallik asorati, travma, kuchli antibiotik ta'siri) tufayli eshitishi karlik yoki zaif eshitish darajasida pasayishi, atrofdagilar nutqini eshitmaslik va nutqi shakllanmaslikka (soqovlikka) olib keladi.

Nutq faoliyati bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'i nerv hujayralarining murakkab, bir-biriga muvofiqlashgan faoliyatining mahsulidir. Bosh miya po'stlog'ida nutqning uchta markazi: eshitish, ko'rish va nutq apparatini harakatlantiruvchi markazi mavjud. Eshitish markazi buzilganida bola o'zini o'rab turgan ovozlar, tovushlar odamlarning nutqini eshtish va idrok qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Og'zaki nutq, ovoz, tovushlar orqali ifodalanuvchi so'zlar va gaplardan iborat. Har bir tilning tovush tarkibi turlicha bo'lganligi tufayli talaffuz me'yordi ham turlichadir.

Bola nutqni egallash jarayonida o'z ona tili, ya'ni atrofidagilar tilining o'ziga xos tovush tarkibi asosida, nutqiy amaliyotni egallab boradi. Nutqni egallash, atrofidagilar tomonidan so'zlarni son-sanoqsiz ravishda takrorlanishi orqali bolalar ilk yoshidan eshitib idrok etadi va nutki shakllanib rivojlanadi.

Eshitish imkoniyati nutqni mustaqil egallay olmaslik darajda pasaygan yoki yo'qolgan bolalarga, maxsus yondoshuvlar orqali o'rgatilmasa bir umr soqovlikka mahkum bo'lib, o'z ona tilini bilmasligi uni egallamasligi mumkin.

Asrlar davomida eshitish imkoniyati nutqni mustaqil egallay olmaslik darajda pasaygan yoki yo'qolgan bolalar, faqat maxsus ta'limga jalgan etish orqaligina ta'lim olishi mumkin, aks holda bir umr soqovlikka mahkum bo'lib, o'z ona tilini bilmasligi uni egallamasligi mumkin, deb xisoblangan. Kar, zaif eshituvchi bolalar, faqat maxsus ta'lim orqali so'zlashuv nutqini egallashlari, savodi chiqib o'qish orqali o'z ona tilini qisman tushunib o'rganishga erishganlar, lekin asosiy muloqot vositasi imo-ishorali nutq bo'lib kelgan. Natijada jamiyatda faqat eshitmaydiganlar doirasidagina muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lib kelganlar. Maxsus ta'lim esa faqat ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda amalga oshirilganligi sababli bu

bolalar oila, maxalla, urug‘ qarindoshlardan yiroqlashgan holda, faqat o‘zi kabi nutqiy imkoniyati rivojlanmagan tengqurlari muhitida voyaga yetib, asosiy muloqot vositasi ovozsiz imo -ishora bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda.

Psixologik nuqtai nazardan eshituvchilar uchun og‘zaki nutqni egallash oddiy sanaladi. Bolada og‘zaki nutq atrofdagilar bilan muloqotda rivojlanadi. Eshituv idroki yordamida bola atrofdagilar og‘zaki nutqini idrok etadi, 5-6 yoshlarda bola atrofidagilarning to‘g‘ri talaffuzini, lug‘at boyligi va gapning grammatik qoidalarini amaliy egallaydi.

Eshitmaydigan bola bu yo‘l bilan nutqni egallay olmaydi, chunki u atrofidagilar nutqini eshitmaydi. Agar eshituvchi bola bog‘chaga maktabga shakllangan nutq bilan borsa, kar bola og‘zaki nutqi mavjud bo‘lmagan holda boradi. Unda nutqni boshidan boshlab shakllantirish talab etiladi.

Buning uchun kar bolaning artikulyatsiya organlari(nutq) apparati, nafas olishi, ovozi talaffuzini, so‘zlash uchun tayyorlash, rivojlantirish, gapirishga tayyorlash talab qilinadi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, kar bolada nutqiy nafas mustaqil ravishda shakillanmaydi. U so‘zlashuv paytida havo oqimini to‘g‘ri taqsimlab foydalana olmaydi va shu sababli ravon gapira olmaydi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutqiy nafas maxsus mashqlar davomida shakllantiriladi. Ularning ovozini me'yorga keltirish, shakllantrish ustida ham maxsus tayyorgarlik ishlari olib borilishi talab etiladi. Chunki aksariyat hollarda karlarning ovozi bo‘g‘iq yoki faltset holatda bo‘lib, modullashmagan bo‘ladi. Surdopedagog mutaxassis maxsus mashqlar jarayonidagina eshitmaydigan o‘quvchi ovozini eshituvchi bola ovoziga yaqinlashtirishga erishishi mumkin, lekin bu har doim ham kerakli natjalarga olib kelmaydi. Kar bolaning ovozi va nutqi butun hayoti davomida o‘ziga xos ohangda bo‘lib kelgan. Chunki yuqorida keltirilgan barcha ishlar sinfda faqat dars jarayonidagina ovozni kuchaytirib beruvchi apparatlar orqali amalga oshirilib kelingan. Qolgan vaqtida bu bolalarda nutqni eshitib unga taqlid qilish, o‘z nutqini darsda o‘rgatilganidek eshitib nazorat qilish imkoniyati bo‘lmagan.

Lekin fan, texnika, texnologiyalar rivojlanishi tufayli eshitishdagi muammolar, ularning holatlariga mos ravishda eshitishni kompensatsiyalovchi zamonaviy texnologiyalar yaratilishi, bunday muammoli bolalarga ilk yoshida eshitish va nutqni egallash imkonini bermoqda. Natijada eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar sog‘lom bolalar qatori rivojlanishiga erishish imkonи tug‘ildi.

Chunki bu muammoning samarali hal etilishigina bolalarning ijtimoiy moslashuvi ehtiyojini hal etib, to'laqonli shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlaydi.

1.Pfvjyfdbq ovozni kuchaytirib beruvchi eshitish apparati. Bu apparatlar eshitishida muammosi bo'lgan har bir bolaning qulog'iga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'lib, bolaga ilk yoshidan taqilsa bola tengdoshlari qatori rivojlanish imkonini berishi mumkin.

2.Koxlear implantatsiya – eshitishi zaif va kar bolalarning eshituvchilar dunyosiga kirish va dunyoni ovozlar, tovushlar orqali idrok etish imkoniyatini yaratuvchi hozirgi kunning yagona va eng samarali usullari hisoblanadi.

Koxlear implantatsiya jarrohlik yo'li bilar amalga oshirilib, bolalarning ovozlar, musiqa, nutq, va boshqa tovushlarni eshitishi va o'zini jamiyatda, ijtimoiy hayotda erkin idora qilish imkoniga ega bo'lishini ta'minlamoqda.

Eshitmaydigan bolaning so'zlashuv nutqini to'laqonli egallashi uni soqovlikdan, faqat o'ziga o'xshashlar bilan imo-ishoralar bilangina muloqotda bo'lib qolish kabi chegaralanishlardan qutqaradi, atrofdagilarning nutqini tushunish, o'z fikrini nutq orqali o'zgalarga, suhbatdoshiga yetkazish imkoniyatiga, ya'ni to'laqonli muloqotga erishishga, aniq, ravon va tushunarli gapira olishiga imkon yaratuvchi zamonaviy amaliyot hisoblanadi.

Bugungi kunda koxlear implantatsiya – bu borada karlarga yordam beruvchi original uslub bo'lib, eshitishida koxlear muammosi bo'lgan bolalarga atrofdagi barcha tovushlarni eshitish, farqlash, nutqni eshitish, o'z nutqini eshitish va o'qituvchining nutqi, tala ffuzi bilan solishtirish orqali uni rivojlantirish imkoniyatini yaratmoqda.

Lekin ilk yoshidan implant, eshitish apparat kuyilgan bolaning eshitish qobiliyati barcha nutq tovushlarini **o'zi mustaqil ravishda** eshitishi me'yorda bo'lgan bolalar qatori eshitish va farqlash, o'zi mustaqil eshitishni o'rganib, nutqni egalash imkonini bermaydi. Bunda bolaning fonematik eshituvini rivojlanishi, ya'ni nutqni eshitishi, taqlid qilishi va u asosida gapirib ketishi uchun maxsus yondoshuv talab kilinadi.Koxlear implant yoki eshitish apparati qo'yilgan kundan boshlab, bolaga atrofdagi ovoz va tovushlarni avval shunchaki eshitish, keyin ularni farqlash, keyingi eshitganida nimaning ovozi, qanday so'z ekanini farqlash, asta sekin taqlid qilish kabilar hayotining har bir daqiqasida o'rgatib nazorat qilib borishni talab qiladi.Bu ish surdopedagog nazorati va bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.Ya'ni bola bilan ishslashda qator subyektlar ishtirokida amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

I innovatsion klasterli yondoshuv bu muammoni hal etilishida muhim va samarali yondoshuv hisoblanadi.

Klasterli yondoshuv talablari.

Birinchi talabi:

1.Turli ovozlar (suvni oqishini,idishlarni jranglashi chinni, shisha, plastmass, temir idishlar, turli ovozli o‘yinchoqlar chiqadigan ovozlar), hayvonlarni ovozi va boshqa ovozlarni eshittirib bolada avval ovozlarga reaksiya, e’tiborini shakllantirish.

2.Eshitgan ovozlarni farqlash va nimaning ovozi ekanligini topib ko‘rsatish,

3.Yaqinlarini ovozini eshitib farqlash,ularining nomlanishini eshitib farqlash, taqlid qilib aytish.

4.Nutq tovushlari va bo‘g‘inlarni eshitib taqlid qilib aytish, atrofidagi kundalik sharoitda ko‘rib eshitadigan narsalarining nomlanishini eshitib farqlash, taqlid qilib aytishni o‘rgatish.

5.O‘ziga qaratilgan murojaat va savollarni eshitib tushunish.

Klasterli yondoshuvning ikkinchi talabi:

Yuqoridagi amallar faqat onaning o‘zi yoki surdopedagog mutaxassis olib borishining o‘zi ko‘zlagan natija bermaydi.Bunda qator sub'ektlarning tabiiy muhitdagi faol ishtiroki talab etiladi. Ma’lum-ki aksariyat hollarda onalar eshitmaydigan farzandini asrab avaylab, ko‘chadagi qo‘shni bolalar ustidan kulishidan asrash maqsadida ularga qo‘shmaslikka harakat qiladilar. Bu esa bolani nutqiy muhitini chegaralab qo‘yilishiga olib keladi.

Maxsus ta’lim jarayonida ham bolalar maktab-internat sharoitida faqat o‘ziga o‘xshagan muhitda yashashga moslashgani tufayli nutqiy muhit chegaralanganligi tufayli nutqiy muloqotga ehtiyoj sezmaydilar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda eshitishida muammolari bo‘lgan bolalarni ijtimoiylashuvi, inklyuziv ta’limga tayyorlashda klasterli yondashuv talab qilinadi va bu yondashuvda qator subyektlar ishtiroki talab etiladi va bu yondoshuv eshitishni boshlagan bolalar uchun me’yordagi muhitni tashkil etadi. Bu esa “Innovatsion klaster” muhiti bo‘lib

eshitmaydigan bolaning reabilitatsiya jarayonidagi qator sub'ektlar ishtirokida amalga oshiriladi:

eshitish bo‘yicha tibbiyot mutaxassis(ottoloringolog, surdolog)

apparatni sozlab boruvchi audilog, surdo-texnik,

psixonevrolog,


surdopedagog,  
maxsus psixolog,  
oila a'zolari (ona rahbarligida),  
audio va video texnologiyalar,  
mahalla ( sharoit yaratuvchi subyekt: mahalladagi ota-onalar bilan inklyuziv muhitni tashkil etish bo'yicha suhbatlar olib boradi),nutqiy muxitni tashkil etuvchi maxalla bolalaridan tashkil topgan klaster sub'ektlarining ishtiroki orqali KI qilingan va apparat taqilgan bolalar sog'lom bolalar nutqiy muhitida rivojlanadi.

Shu tarzda tashkil etilgan innovatsion klaster muhiti muhitini tashkil qilish orqali eshitishida muammosi bo'lgan (kar, zaif eshituvchi) bolani eshituvchilar dunyosiga yetkazish va og'zaki muloqot qila oladigan darajada eshitish ko'nikmasi rivojlanib nutqni egallashiga erishish va sog'lom tengurlari orasida inklyuziv muhit paydo bo'lishi ta'minlanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность.// – М.: Просвещение, 1999.
2. Николаева Т.В. Комплексное психолого-педагогическое обследование ребёнка третьего года жизни с нарушенным слухом // Дефектология. - 2004. -№4 – с. 40-46.
3. Л.Р.Мүминова, Д.А.Назарова маҳсус таълим атамаларининг изоҳли луғати.// Тошкент, 2010 й.
4. Виготский Л.С. Вопросы детской психологии.// Санкт-Петербург. 1999.-214 с.
5. Быкова Л.М. Развитие связной речи глухих учащихся начальных классов.// –М.: 1989
6. Рай Ф.Ф., Слезина Н.Ф. Методика обучения глухих произношению.// –Москва. 1990
7. Файзиева У.Ю. Эшишида муаммолари бўлган болалар инклузив таълими.// – А.Авлоний номли ХТХҚТМОМИ, БМТ ЮНИСЕФ халқаро болалар жамғармаси.
8. Файзиева У.Ю. Мактабгача ёшдаги эшишида мауммоси бўлган болалар таълими.// –Тошкент. «ИЛМ ЗИЙО», 2006.
9. Файзиева У.Ю. Эшишида муаммолари бўлган болаларга она тили ўқитиши методикаси.// – Тошкент, «Тафаккур» нашриёти, 2011

10. Фозилов Ж., У.Ю. Файзиева У.Ю., ва бошқалар Ўз фарзандингга ўзинг мадад бўл!// – «Юрист-медиа маркази» НАШРИЁТИ 2010.
11. Файзиева У.Ю. Махсус психология(Сурдопсихология) маъruzалар матни, А.Алоний номидаги XTXҚТМОМИ- 2009
12. Файзиева У.Ю. Теоретические основы кластерной модели инклюзивного образования в Республике Узбекистан//. Ташкент. издательство Нисо Полиграф-2023г.



---

# Research Science and Innovation House